

OILAVIY MUNOSABATLAR VA ULARGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-414-417>

Tilavoldiyeva Valida Ma’murjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti

II-kurs tayanch doktoranti

Farg‘ona shahri

[*abdullajonovavalida.1@gmail.com*](mailto:abdullajonovavalida.1@gmail.com)

+998901605010

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi oilaviy munosabatlar tuzilishi, ularning shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy ijtimoiy, psixologik, madaniy hamda diniy omillar ko‘rib chiqiladi. Oila jamiyatning muhim instituti sifatida tarixiy manbalarda ham, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ham turlicha talqin qilingan. Sotsiologlarning nazariyalari, shuningdek Sharq mutafakkirlarining oilaga oid qarashlari tahlil qilindi. Zamonaviy o‘zbek jamiyatidagi oilaviy munosabatlar dinamikasi, modernizatsiya va qadriyatlar o‘zgarishi kontekstida yoritildi.

Kalit so‘zlar: oila, oilaviy munosabatlar, sotsiologiya, psixologiya, qadriyatlar, modernizatsiya, gender rollari, avlodlararo munosabatlar, Sharq mutafakkirlari.

Аннотация: В данной тезисной работе рассматривается структура семейных отношений, а также основные социальные, психологические, культурные и религиозные факторы, влияющие на их формирование и развитие. Семья как важнейший институт общества по-разному интерпретируется как в исторических источниках, так и в современных научных исследованиях. Проанализированы социологические теории, а также взгляды восточных мыслителей на семью. Динамика семейных отношений в современном узбекском обществе освещается в контексте модернизации и трансформации ценностей.

Ключевые слова: семья, семейные отношения, социология, психология, ценности, модернизация, гендерные роли, межпоколенческие отношения, восточные мыслители.

Abstract: This thesis examines the structure of family relations and the main social, psychological, cultural, and religious factors influencing their formation and development. The family, as a fundamental institution of society, has been interpreted in various ways in both historical sources and modern academic research. Sociological theories, as well as the views of Eastern thinkers on the family, are analyzed. The dynamics of family relations in contemporary Uzbek society are explored in the context of modernization and changes in values.

Keywords: family, family relations, sociology, psychology, values, modernization, gender roles, intergenerational relations, Eastern thinkers.

Oila— bu jamiyatning eng muhim ijtimoiy instituti bo‘lib, inson hayoti, qadriyatlari va ijtimoiy tajribasining shakllanishida markaziy o‘rin tutadi. Oila nafaqat biologik va iqtisodiy birlik, balki shaxsning psixologik, ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishining asosiy manbai hisoblanadi. Oila orqali shaxs jamiyatning ijtimoiy me’yorlarini, qadriyatlarini va madaniy an’alarini o‘zlashtiradi, ya’ni ijtimoiylashuvning eng muhim bosqichini kechiradi.[1, 15–18-b.].

Rus psixologiyasi nomoyondasi D.B. Shneyder oilaga shunday tarif beradi: “Oila-bu inson hayoti davomida uni hamroh etib boruvchi eng muhim hodisalardan biridir”. Shaxsga ta’sirining ahamiyati, murakkabligi, ko‘p qirraliligi va muammoliligi oilani o‘rganishda turli xil yondashuvlarning, shuningdek, ilmiy adabiyotlarda uchraydigan ko‘plab ta’riflarning mavjudligini belgilab beradi. Tadqiqotning predmeti sifatida oila ijtimoiy institut, kichik guruh va munosabatlar tizimi sifatida qaraladi.[1, 25–27-b.].

A. I. Antonovning fikricha, oilani ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabat yaratadi, nikoh esa erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlarning, birgalikdagi yashash yoki jinsiy sheriklikning, farzand ko‘rish bilan bog‘liq shakllarining qonuniy tan olinishi sifatida namoyon bo‘ladi. U oilaning makoniy joylashuviga — ya’ni turar joy, uy, mulk — hamda oilaning iqtisodiy asosiga, ya’ni ota-onalar va bolalarning birgalikdagi, maishiy hayot va iste’mol doirasidan tashqariga chiqadigan umumiy faoliyatiga e’tibor qaratadi. [2, 44–46-b.].

Har bir oila ijtimoiy tizim struktura sifatida jamiyat oldida ma’lum bir vazifalarni bajaradi. Oilaning ijtimoiy vazifalari haqida gapirilganda, bir tomondan jamiyatning oilaga ta’sirini, ikkinchi tomondan esa umumiy ijtimoiy tizimda oilaning o‘rnini, oilaning hal qiladigan ijtimoiy (jamoatchilik) vazifalarini hisobga olish lozimdir. Barcha avvalgi jamiyatlarda oila quyidagi asosiy vazifalarni bajargan: iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy, rekreativ, kommunikativ, regulyativ (boshqaruv).[3, 67–72-b.].

Bu haqda Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da va Sharq allomalari Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Ibn Sino, Amir Temur va boshqalar o‘z asarlarida yozib qoldirganlar.

Zardushtiylikning qadimiy kitobi — “Avesto”da oila muqaddas dargoh ekanligi, oila barqarorligida er va xotinning teng mas’ulligi, farzand tarbiyasi to‘g‘risidagi fikrlar bayon etilgan. Oilaning tinch va farovon bo‘lishi nimalarga bogliq ekanligi haqida esa: «Porso, inson uy tiklab, olovga, oilasiga, xotin va farzandlariga o‘rin ajratib bersa, uyida noz-ne’matlari muhayyo bo‘lib, xotin va farzandlari farovon yashasa, uyida e’tiqod, sobit olovi alangali, boshqa narsalari ham mo‘l-ko‘l bo‘lsa, o‘sha manzil muhtaramdir», — deb yozilgan. Bu kitobda ko‘rsatilishicha, oilada ota yetakchi bo‘lgani ma’qul. Shuningdek, unda ifodalangan oila va oilaviy munosabatlarga hamma rioya etishi lozim bo‘lgan. Eng ahamiyatli jihati shundaki, unda er-xotinni o‘zaro sodiq, g‘amxo‘r, mehribon bo‘lishlari lozimligi va ayolning haq-huquqini himoya qilish o‘sha davrda ham qonun darajasiga ko‘tarilganligi ma’lumdir. Umuman olganda, zardushtiylik davridanoq oila masalalariga katta e’tibor qaratilgan bo‘lib, bu esa oilaning jamiyatda tutgan o‘rni va mavqeyini mustahkamlash uchun azal davrlardanoq zamin yaratilganligini kuzatamiz.[7, 58-b.].

Abu Nasr Farobiyning inson kamoloti, baxti, ta’lim va qarashlari umumfalsafiy qarashlar va tushuntirishlardan iborat o‘git bo‘lib, axloq nazariyasini boyitdi. Uning ta’limotlarida keltirilishicha, haqiqiy baxt bir odamning boshqasiga nisbatan g‘ayirligi, zulmi yo‘qolgandagina bo‘ladi, oila a’zolarining bir-birlariga

samimiy munosabatlari, mehr-u oqibatlarini esa ana shu oiladagi odamlarning baxtini tashkil qiladi. Bundan tashqari, har bir ota-onaning o'z farzandlari uchun birlamchi ustoz, yo'l ko'rsatuvchi ekanligi va aynan ular bolada ta'lim-tarbiyaga kerakli tayyorgarlik holatini shakllantirish ta'siriga ega ekanligi to'g'risida aytib o'tgan.[8, 97-b.]

O'rta asrlarning buyuk arbobi, olim-ensiklopedist Abu Rayhon Beruniyning ko'pgina asarlarida inson odobi va axloqi xususidagi noyob fikrlar o'z ifodasini topgan, Mutaffakkir o'zining «Minerologiya», «Geodeziya», «Hindiston», «O'tgan avlodlar obidalarini» nomli asarlarida inson shaxsi, uning kamoloti, aql- idroki, halovat va lazzati, sabr-toqat va kamtarlik, go'zallik va did, poklik va xudbinlik kabi tushunchalarga inson ruhiyatining bilimdoni sifatida ta'rif bergan. U bunday yozadi: «Inson jamiyatda o'z qarindosh-urug'lari bilan birlashib olishga majburdir, bundan maqsad bir-birini qo'llab-quvvatlash hamda har bir kishining ham o'zini, ham boshqalarini ta'minlash uchun ishlarni bajarishdir».[(3, 104–106-b.).

Oilaviy munosabatlar va bu sohaga oid qarashlar tizimida Sharq mutaffakkirlaridan biri, butun Yevropa xalqlari ham uning qomusiy bilimdonligini tan olgan alloma Abu Ali ibn Sinodir (980—1037). Buyuk olim sifatida u barcha hodisalarning ilmiy mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Ibn Sinoning pedagogik va psixologik qarashlari ijtimoiy asosda qurilgan bo'lib, u bola tarbiyasida umuminsoniy tamoyilning qo'llanilishini yoqlab chiqqan va tarbiyachi ota-onalarga bolani qattiq tan jazosidan ko'ra, shaxsiy ibrat orqali tarbiyalash ma'qulligini uqtirgan. Mutafakkirning qalamiga mansub bo'lgan «Donishnoma», «Risolayi ishq», «Tib qonunlari», «Uy xo'jaligi» kabi qator asarlari O'rta Osiyo xalqlari axloq-odobi, psixologiyasi va tabobat olamida alohida o'rin tutgan yirik ilmiy tadqiqotlar hisoblanadi. Axloqiy tarbiya masalalarida alloma oilaning o'rnini alohida ta'kidlagan. Oila va oilaviy munosabatlar masalasi uning «Tadbiri manzil» asarida o'ziga xos tarzda bayon etilgan. Oilaviy munosabatlarning turli tomonlarini yoritgan ekan, Ibn Sino, avvalom bor oila boshlig'i oldiga qator talablarni qo'yadi. Oila boshlig'i, deb yozadi u, ham nazariy, ham amaliy jihatdan oilada tarbiya masalalarini mukammal o'zlashtirmog'i lozim. Agar oila boshlig'i tajribasiz bo'lsa, u o'z a'zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi, oxir-oqibat u yaxshi ijobiy natijalarga erisha olmaydi, yomon tarbiya nafaqat ushbu oila, balki qo'shnilariga, mahalla-ko'ygacha ham yomon ta'sir qilishi mumkin.[9, 121–125-b.).

Diniy olim Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf o'zining «Baxtiyor oila nomli kitobida diniy tomondan oilaviy munosabatlarni tahlil etganlar. Qanday oilalar baxtli bo'lishi va baxtga erishish yo'llarini ham bu asardan bilib olishimiz mumkin. U o'z asarida ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar, jamiyatdagi yetakchi doiralarning yosh avlodni oilali qilish borasidagi burchlari ularni nikohlab qo'yish bilan cheklanmasligini takidlaganlar. Balki, kelinlik va kuyovlikka nomzod yoshlarga nikoh, oila, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, oila tutish sirlari, er-xotinlik munosabatlari kabi narsalarni o'rgatish ham zarur ekanligini alohida takidlab o'tganlar. Bu borada ham qilishimiz lozim bo'lgan ishlarimiz anchagina ekanligini, hozirgi kuzatishlar natijasiga qaraganda, ko'pchilik

ota-onalar farzandlarini oilali qilish maqsadida mol-dunyo va sep yig'ishlarini, sovcilik, qudachilik bordi-keldilarini qilishlarini va kattaroq to'y qilish bilan o'z burchlarini ado etgandek bo'lib, erkin nafas olishlarini aytganlar. Ammo eng muhim masalalardan biri bo'lgan narsa — qizlarini kelinlikka, o'g'illarini kuyovlikka tayyorlash eslaridan chiqib qolayotganligi haqida o'z fikrlarini aytib o'tganlar. [4, 36–40-b.].

Xulosa qilib aytganda, oila bu jamiyatning asosiy negizi hisoblanib, millatning taqdiri ham aynan shu makonga borib taqaladi. Oliviy munosabatlarga esa ijtimoiy muhitdan turli narsa va hodisalar ta'sir etishi mumkin. Oilani bunday salbiy tasirlardan himoya qilish uchun, oilani undagi muhitni sog'lom saqlash ota-onalarning burchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shneyder D.B. Family as a Social Institution. – New York, 1984.
2. Antonov A.I. Sotsiologiya sem'i. – Moskva: Nota Bene, 2013.
3. Xarchev A.G. Brak i semya: sotsiologicheskiy analiz. – Moskva: Mysl, 1979.
4. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2015.
5. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1991.
6. “Avesto”. – Toshkent: Sharq, 2001.
7. Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Fan, 1993.
8. Ibn Sino. Donishnoma. – Toshkent: Fan, 1980.
9. Jurayev, S. S. O. (2021). Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi. *Academic research in educational sciences*, 2(Special Issue 1), 395-401.